



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST/8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLAT-BANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI

Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahallalardagi tadbirkorlik sub’yektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda davlat organlari va tijorat banklari o‘rtasidagi hamkorlikni boshqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda davlat-bank hamkorligining nazariy-uslubiy asoslari, uch tomonlama (davlat–mahalla–bank) institutsional modelning shakllanishi, “mahalla bankiri” va “mahalla yettiligi” institutlarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturi, 2026-yil 16-iyuldagi videoselektor yig‘ilishi qarorlari hamda “Mikrokreditbank” ATB amaliyoti statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tahlil natijasida davlat-bank hamkorligini boshqarishdagi institutsional, moliyaviy-iqtisodiy va axborot-texnologik muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan uch bosqichli konseptual boshqaruv modeli, risklarni taqsimlash mexanizmi va natijaga asoslangan subsidiyalash tamoyili taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, tadbirkorlik, davlat-bank hamkorligi, mahalla bankiri, mahalla yettiligi, mikrokreditlash, moliyaviy inklyuzivlik, subsidiyalash, KPI, davlat-xususiy sheriklik

Аннотация: В статье исследуются механизмы управления взаимодействием между государственными органами и коммерческими банками в сфере финансовой поддержки субъектов предпринимательства в махаллях. Раскрыты теоретико-методологические основы государственно-банковского партнерства, формирование трехсторонней институциональной модели «государство–махалля–банк», сущность институтов “махаллинского банкира” и “махаллинской семерки”. На основе статистических данных проанализированы Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 26 декабря 2025 года, Государственная программа, утвержденная Указом Президента № УП-22 от 16 февраля 2026 года, решения видеоселекторного совещания от 16 июля 2026 года, а также практика АКБ “Микрокредитбанк”. Выявлены институциональные, финансово-экономические и информационно-технологические проблемы управления и предложены трехуровневая концептуальная модель управления, механизм распределения рисков и принцип субсидирования, ориентированного на результат.

Ключевые слова: махалля, предпринимательство, государственно-банковское партнерство, махаллинский банкир, махаллинская семерка, микрокредитование, финансовая инклюзивность, субсидирование, KPI.

Abstract: This article examines the management mechanisms of cooperation between government bodies and commercial banks in providing financial support to entrepreneurial entities in mahallas (local communities). The study reveals the theoretical and methodological foundations of state-bank partnership, the formation of the tripartite “state–mahalla–bank” institutional model, and the essence of the “mahalla banker” and “mahalla seven” institutions. Based on statistical data, the article analyzes the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis of December 26, 2025, the State Program approved by Presidential Decree No. PF-22 of February 16, 2026, the decisions of the videoconference meeting of July 16, 2026, and the practical experience of Mikrokreditbank JSCB. Institutional, financial-economic, and information-technological management problems are identified, and a three-stage conceptual management model, a risk-sharing mechanism, and a results-based subsidization principle are proposed.

Keywords: mahalla, entrepreneurship, state-bank cooperation, mahalla banker, mahalla seven, microcredit, financial inclusion, subsidization, KPI, public-private partnership.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimida mahalla instituti tadbirkorlik faolligini oshirish va aholi bandligini ta'minlashning asosiy bo'g'ini sifatida mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026-yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilingani hamda ushbu maqsadlarga qaratilgan alohida Davlat dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangani mazkur institutga davlat siyosati darajasida strategik ahamiyat berilganidan dalolat beradi [1; 2].

Davlat dasturi doirasida 337 ta banddan iborat amaliy chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan bo'lib, ularning salmoqli qismi mahalla darajasidagi tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga bevosita daxldordir [2].

Mahalla darajasidagi tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati ko'p hollarda davlat organlari, mahalliy ijro hokimiyati va tijorat banklari o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik darajasiga bevosita bog'liq. So'nggi yillarda joriy etilgan "mahalla yetiligi" tizimi, "mahalla bankiri" instituti, kredit foiz stavkalarini subsidiyalash va mikrokreditlash tizimini kengaytirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar davlat va bank tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlarni yaxlit boshqaruv ob'yekti sifatida qarash hamda uni institutsional jihatdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Prezidentning 2026-yil 16-iyulda o'tkazilgan, mahallalarga yangi muhit olib kirish va "mahalla yetiligi" faoliyatini yangicha tashkil etishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mahalla bankirlarining ish uslubini tubdan o'zgartirish, ular uchun KPI (samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari)ni joriy etish vazifasining qo'yilgani mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi [3].

Mazkur maqolaning maqsadi sifatida mahallalardagi tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlat organlari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni boshqarish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash, 2025–2026-yillardagi normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy tajribani statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy inklyuzivlik va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Institutsional iqtisodiyot nazariyasi asoschilaridan D. Nort institutlarni jamiyatdagi "o'yin qoidalari" sifatida ta'riflab, ularning tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishdagi rolini asoslagan bo'lsa, J. Stiglits moliyaviy bozorlardagi axborot assimetriyasi davlat aralashuvini ob'yektiv zarurat qilib qo'yishini ko'rsatib bergan [4; 5]. Mikromoliyalashtirish nazariyasida M. Yunusning guruhli kreditlash va bosqichma-bosqich kreditlash (ing. graduated lending) modeli garov ta'minoti bo'lmagan quyi daromadli qatlamlarni kreditlash riskini ijtimoiy kapital hisobiga kamaytirish mumkinligini amalda isbotladi [6]. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining moliyaviy inklyuzivlik bo'yicha tahliliy hisobotlari rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat subsidiyalari bilan bank kreditlashini muvofiqlashtirish modellari samaradorligini baholash uchun metodologik asos vazifasini o'taydi [7].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash, mikromoliya tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan [8]. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi bo'shliqni ko'rsatadi. Xususan, mahalla darajasida davlat organlari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlik alohida boshqaruv ob'yekti sifatida institutsional va tashkiliy-huquqiy jihatdan kompleks tarzda o'rganilmagan. Shuningdek, 2025–2026-yillarda joriy etilgan "mahalla bankiri" institutining samaradorligini baholash mezonlari, mahalla raisi, hokim yordamchisi va bankir o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti, davlat subsidiyalari bilan bank kreditlash mexanizmini muvofiqlashtirish modellari to'liq ilmiy yechimini topmagan. Ayni shu jihatlar mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy-metodologik asos sifatida institutsional

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787>



iqtisodiyot nazariyasi, davlat-xususiy sheriklik konsepsiyasi va moliyaviy inklyuzivlik nazariyasining ilmiy qoidalari qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2025-yil 26-dekabr), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF–22-son Farmoni, 2024-yil 2-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–149-son² va 2026-yil 5-fevraldagi "2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–49-son³ qarorlari, 2025-yil 14-oktabr va 2026-yil 16-iyuldagi videoselektor yig'ilishlari materiallari, "Mikrokreditbank" ATBning rasmiy matbuot anjumani ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlari tashkil etdi [1–3; 9–11].

Metodlarning amaliy qo'llanishi quyidagicha bo'ldi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tanlashda uch mezon amal qildi. Birinchidan, hujjatning 2024–2026-yillarda qabul qilingani, ya'ni mahalla bankiri instituti va uch tomonlama modelning shakllanish davriga tegishliligi; ikkinchidan, hujjatda mahalla darajasidagi kreditlash, subsidiyalash yoki mahalla moliyasiga oid bevosita moliyaviy me'yor yoxud tashkiliy mexanizm belgilangani; uchinchidan, hujjatning rasmiy manbada (lex.uz, president.uz) e'lon qilingani va matnining ochiqqligi. Ushbu mezonlar asosida Oliy Majlisga Murojaatnoma, PF–22-son Farmon, PQ–149-son va PQ–49-son qarorlar hamda 2025-yil 14-oktabr va 2026-yil 16-iyuldagi videoselektor yig'ilishlari materiallari tanlab olindi. Monografik tahlil ob'yekti sifatida "Mikrokreditbank" ATB tanlangani uning mahalla darajasidagi mikromoliyalashtirishga ixtisoslashgani va mahalla bankirlari tarmog'i bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarga egaligi bilan izohlanadi. Qiyosiy tahlil normativ hujjatlarda belgilangan maqsadli parametrlarni (mikroloyihalar soni, ajratilgan resurs hajmi, foiz stavkasi) bank amaliyotidagi faktik ko'rsatkichlar (bir bankir zimmasidagi mahallalar va loyihalar soni, kredit portfeli hajmi) bilan taqqoslash yo'li bilan amalga oshirildi.

Mantiqiy umumlashtirish esa shu taqqoslashda aniqlangan nomutanosibliklarni institutsional, moliyaviy-iqtisodiy va axborot-texnologik muammolar guruhlariga ajratish uchun qo'llanildi. Statistik ma'lumotlarning ishonchliliigi ularni kamida ikki mustaqil manba (rasmiy hujjat yoki Prezident matbuot xizmati e'loni hamda bank hisoboti) bo'yicha solishtirish orqali tekshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-bank hamkorligi davlat organlari va moliya-kredit muassasalari o'rtasida umumiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish yo'lida shakllanadigan institutsional munosabatlar majmuasi sifatida talqin etiladi. Mahalla darajasidagi davlat-bank hamkorligining o'ziga xos xususiyati shundaki, bu yerda an'anaviy ikki tomonlama (davlat-bank) modelga uchinchi sub'yekt sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi qo'shilib, uch tomonlama (davlat-mahalla-bank) institutsional model shakllanadi.

Ushbu modelda mahalla raisi boshchiligidagi "mahalla yettiligi" (rais, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, profilaktika inspektori, soliq xodimi) talab tomonini, ya'ni aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy ehtiyojini aniqlaydi, mahalla bankiri esa taklif tomonini, bank mahsulotlari va kredit resurslarini ushbu ehtiyojga moslashtirishni ta'minlaydi [3; 10].

Ushbu tizimning institutsional evolyutsiyasi 2025-yil 14-oktabrdagi videoselektor yig'ilishida umumlashtirilgan natijalarda yaqqol ko'rinadi. Mamlakatimizda "yettilik" tizimi joriy etilib, kredit, subsidiya, kompensatsiya va moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ziyod xizmat mahalla darajasiga tushirilgani hisobiga 7,5 million fuqaro kambag'allikdan chiqqan, ishsizlik darajasi ikki barobar qisqargan, mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilgan [10]. Bu ma'lumotlar mahallaning moliyaviy xizmatlarni "yetkazib berish nuqtasi"ga aylanishi davlat-bank hamkorligining tashkiliy asosini yaratganini ko'rsatadi.

2026-yilga mo'ljallangan davlat siyosatining moliyaviy parametrlari Prezident Murojaatnomasida aniq belgilab berilgan (1-jadval).

² <https://lex.uz/uz/docs/-6862227>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-8038302>

1-jadval. 2026-yilga mo'ljallangan mahalla darajasidagi tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash parametrlari⁴

No	Ko'rsatkich	Belgilangan parametr
1	Har bir mahallada amalga oshiriladigan mikroloyihalar soni	40 tadan
2	Mikroloyihalar orqali bandlik bilan qamrab olinadigan aholi	360 ming kishi
3	Mahalla bankirlari va hokim yordamchilari ixtiyoriga beriladigan resurs	7,5 trln so'm
4	Tadbirkorlik va mahalla infratuzilmasi loyihalariga ajratma	10 trln so'mdan ziyod
5	Mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun viloyatlarga to'g'ridan-to'g'ri ajratma	20 trln so'm
6	Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltiriladigan jami resurs	140 trln so'm shundan 43 trln so'mi ayollar va yoshlar tadbirkorligiga
7	Kredit foiz xarajatlarini qoplash (milliy / xorijiy valyutada)	10 % gacha milliy valyuta 4 % gacha xorijiy valyuta
8	«Mahallada sanoat va xizmat» loyihasi doirasida ishga tushiriladigan loyihalar	10 mingdan ziyod
9	Yaratiladigan yangi ish o'rinlari	100 ming

Jadval ma'lumotlari davlat siyosatida ikki muhim sifat o'zgarishini aks ettiradi. Birinchidan, resurslar endi tarmoq yoki hudud kesimida emas, bevosita mahalla kesimida rejalashtirilmoqda. Har bir mahallaga 40 tadan mikroloyiha me'yori bunga misoldir. Ikkinchidan, 7,5 trln so'mlik resursning mahalla bankirlari va hokim yordamchilari ixtiyoriga berilishi kredit resurslarini taqsimlash vakolatining quyi operatsion darajaga tushirilganini anglatadi, bu esa mazkur institutlar faoliyatini boshqarish sifatiga qo'yiladigan talabni keskin oshiradi.

Uch tomonlama modelning huquqiy asosini oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari tashkil etadi. Prezidentning 2024-yil 2-apreldagi PQ–149-son va 2026-yil 5-fevraldagi PQ–49-son qarorlariga muvofiq, oilaviy tadbirkorlik kreditlari yagona elektron platforma (oilakredit.uz) orqali to'liq raqamlashtirilgan tartibda, skoring tahlili asosida ajratiladi. Kredit hujjatlari esa mijoz arizasi, hokim yordamchisi tavsiyasi, hokim yordamchisi va mahalla bankiri tomonidan tasdiqlanadigan dalolatnoma elektron shaklda rasmiylashtiriladi [9]. Bu tartib davlat vakili (hokim yordamchisi) va bank vakili (mahalla bankiri)ning bitta kredit jarayonida institutsional jihatdan birlashtirilganini, ya'ni davlat-bank hamkorligining amaliy mexanizmga aylanganini ko'rsatadi.

Mahalla darajasidagi mikromoliyalashtirishga ixtisoslashgan «Mikrokreditbank» ATB tajribasi mazkur mexanizmning bank tizimidagi ifodasini tahlil qilish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. «Mikrokreditbank» ATBning mahalla darajasidagi kreditlash ko'rsatkichlari (2025-yil — fakt, 2026-yil — reja)⁵

No	Ko'rsatkich	Qiymat
2025-yil natijalari		
1	Bankning hududiy bo'linmalari	95 ta
2	Bo'linmalarga birlashtirilgan mahallalar	1 062 ta
3	Faoliyat yuritayotgan mahalla bankirlari / yordamchi agentlar	323 nafar bankir 1 062 nafar yordamchi agent
4	Ajratilgan jami kreditlar	9,8 trln so'm shundan kichik va o'rta biznesga — 7,6 trln so'm
2026-yil reja		
5	Jami kredit resursi	11 trln so'm
6	Shundan, kichik va o'rta biznesga	7,3 trln so'm
7	Davlat dasturlari doirasida	4,3 trln so'm ≈ 140 ming loyiha
8	Mahalla mikroloyihalariga	2,7 trln so'm 50 mingdan ortiq loyiha
9	«Bir kontur — bir mahsulot» tamoyili bo'yicha loyihalar	159 ta kontur 5 207 ta dehqon xo'jaligi 1 747 gektar yer

4 Manba: [1] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5 Manba: [11] asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Jadvaldan ko'rinadiki, bitta mahalla bankiriga o'rtacha uch va undan ortiq mahalla to'g'ri keladi, 2026-yilda esa har bir bankir zimmasiga o'rtacha 150 dan ortiq mikroloyihani moliyalashtirish vazifasi tushadi. Bunday yuklama sharoitida bankirning har bir loyihani sifatli o'rganishi, monitoring qilishi va tadbirkorga maslahat berishi ob'yektiv jihatdan qiyinlashadi. Ayni shu muammo davlat rahbari tomonidan ham e'tirof etilib, 2026-yil 16-iyuldagi videoselektor yig'ilishida mahalla bankirlari faoliyatini tubdan qayta tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qilindi (3-jadval).

3-jadval. 2026-yil 16-iyuldagi videoselektor yig'ilishida mahalla bankiri instituti va mahalla moliyasi bo'yicha belgilangan hamda qayta tasdiqlangan chora-tadbirlar⁶

No	Chora-tadbir	Mazmuni
INSTITUTSIONAL VA KADRLAR YECHIMLARI		
1	Yuklamani me'yorlashtirish	Bitta mahalla bankiriga birlashtiriladigan mahallalar soni uchtagacha qisqartiriladi.
2	Kadrlar korpusini kengaytirish	Oliygo'his bitiruvchilari va yosh mutaxassislar orasidan 400 nafar yangi mahalla bankiri tanlab olinadi; ular namunali mahallalarda amaliyot o'taydi.
3	KPI joriy etish	Bankirlar uchun biznes faolligi, yangi ish o'rinlari va aholi daromadini oshirish bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari belgilanadi.
Moliyaviy shartlar va resurslar		
4	Foiz siyosati	"Og'ir" toifadagi 37 ta hududga kiruvchi mahallalar uchun oilaviy tadbirkorlik kreditlari stavkasi 17,5 foizdan 12 foizga tushirildi (2026-yil 5-fevraldagi PQ-49-son qaror bilan 1-martdan joriy etilgan, 16-iyul yig'ilishida tasdiqlangan).
5	Resurs bilan ta'minlash	Oilaviy tadbirkorlik loyihalari uchun qo'shimcha 2 trln so'm imtiyozli resurs ajratildi. 2026-yil 1-avgustdan bankirlar o'zlari topgan loyihalarga ushbu resursni yo'naltirish huquqiga ega bo'ladi.
6	Mahalla budjetini mustahkamlash	Yer va mol-mulk solig'ining mahallada qoladigan ulushi 10 foizdan 15 foizga oshirildi (2026-yil iyun oyida imzolangan Prezident farmoni bilan joriy etilgan va 16-iyul yig'ilishida tasdiqlangan). Qo'shimcha ravishda noturar joy ob'yektlaridan olinadigan yer va mol-mulk solig'ining 5 foizi hamda sanitariya qoidalarini buzish va noqonuniy qurilish uchun jarimalarning 10 foizi mahallalar budjetiga yo'naltiriladi. Mahallalar budjetiga tushumlarni 2026-yilda 1,6 trln , keyingi yildan 2 trln so'mga yetkazish rejalashtirilgan.
7	Rag'batlantirish	Har bir mahallada kamida bitta daromadli loyihani amalga oshirish uchun «mahalla yettiligi»ga 10 mln so'mdan grant ajratiladi.
Tashkiliy-metodik mexanizmlar		
8	Buyurtma mexanizmi	Mahalla raisi ishsiz fuqarolar ehtiyojini o'rganib, aniq loyiha bo'yicha mahalla bankiriga buyurtma beradi va undan natija talab qiladi.
9	Ilmiy-metodik ta'minot	"Yettilik"ni o'qitish va hududiy muammolarga ilmiy yechim ishlab chiqish uchun Mahallani rivojlantirish milliy instituti tashkil etiladi.

Jadvalda keltirilgan chora-tadbirlarning bir qismi 2026-yil 16-iyuldagi yig'ilishda birinchi marta e'lon qilingan bo'lsa, ayrimlari undan oldinroq qabul qilingan hujjatlar bilan joriy etilib, yig'ilishda qayta tasdiqlangan va to'ldirilgan. Xususan, "og'ir" toifadagi hududlarda oilaviy tadbirkorlik kreditlari stavkasini 12 foiz etib belgilash Prezidentning 2026-yil 5-fevraldagi PQ-49-son qarori bilan 2026-yil 1-martdan joriy etilgan, yer va mol-mulk solig'ining mahallada qoladigan ulushini 10 foizdan 15 foizga oshirish esa 2026-yil iyun oyida imzolangan Prezident farmoni bilan belgilangan [9; 13; 14]. Bu o'rinda "og'ir" toifa deganda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, kambag'allik darajasi, bandlik va aholi daromatlari bo'yicha eng past natijalarga ega hududlar tushuniladi. PQ-49-son qarorga muvofiq shunday 37 ta hudud belgilangan bo'lib, ulardagi mahallalarda oilaviy tadbirkorlik kreditlari bo'yicha yillik stavka umumiy tartibdagi 17,5 foiz o'rniga 12 foiz etib o'rnatilgan [14].

Olib borilgan tahlil mahalla darajasidagi davlat-bank hamkorligini boshqarishda rivojlantirish mumkin bo'lgan uch guruh yo'nalishni ajratish imkonini berdi.

Birinchi guruh: institutsional yo'nalishlar. Mahalla bankiri, hokim yordamchisi va mahalla raisi vazifalari o'rtasidagi vakolatlarni yanada aniq muvofiqlashtirish hamda mas'uliyatni samarali taqsimlash imkoniyatlari

6 Manba: [3; 9; 12—14] asosida muallif tomonidan tuzilgan.



mavjud. Davlat rahbari 2026-yil 16-iyuldagi yig'ilishda "yettilik"ning har bir vakilida resurs va vakolat mavjudligini, shuningdek, mas'uliyat va tashabbuskorlikni yanada kuchaytirish muhimligini alohida ta'kidladi [3].

Buning amaliy ifodasi sifatida "Tashabbusli budjet" dasturi bo'yicha 2026-yilda 7,5 trln so'm ajratilgani hamda 2 136 ta mahallada loyihalarni tayyorlash va ilgari surish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjudligini keltirish mumkin [3]. Bu quyi bo'g'inda loyiha tayyorlash va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish salohiyatini yanada oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, 2026-yil o'rtalariga qadar mahalla banklari faoliyatini baholashning barcha banklar uchun yagona ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish bo'yicha ishlar olib borildi. KPI joriy etish vazifasining qo'yilishi mazkur jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi.

Ikkinchi guruh: moliyaviy-iqtisodiy yo'nalishlar. Subsidiyalanadigan kredit dasturlarining tijorat banklari uchun iqtisodiy jozibadorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Mikroloyihalarning o'rtacha summasi kichik, operatsion xarajatlar esa nisbatan yuqori bo'lgani bois banklar bunday portfelni muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida qabul qiladi. Tadbirkorlik sub'yektlarining garov ta'minoti va rasmiy daromad tarixini shakllantirish ularning standart kreditlash mezonlariga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

"Og'ir" mahallalar uchun stavkaning 12 foizga tushirilishi to'g'ri yo'nalishdagi muhim qadam bo'lib, foiz subsidiyasi bilan bir qatorda kredit riskini kamaytiruvchi qo'shimcha mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Riskni davlat va bank o'rtasida samarali taqsimlash bank balansining barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi guruh: axborot-texnologik yo'nalishlar. Oilaviy tadbirkorlik kreditlari bo'yicha oilakredit.uz platformasining ishga tushirilishi muhim qadam bo'ldi, shu bilan birga mahalla, hokimiyat, soliq organlari va turli banklar o'rtasidagi axborot almashinuvini yagona raqamli konturga to'liq birlashtirish imkoniyati mavjud. Natijada bir tadbirkorning turli dasturlar bo'yicha olgan imtiyozlari, kredit tarixi va loyiha monitoringi ma'lumotlarini yaxlit tizimda shakllantirish, bu orqali resurslarning takroriy yoki samarasiz taqsimlanishi riskini kamaytirish mumkin.

Aniqlangan rivojlanish yo'nalishlarini samarali amalga oshirish uchun boshqarishning uch bosqichli institutsional, moliyaviy va axborot-texnologik konseptual modelini joriy etish taklif etiladi. Institutsional bosqichda mahalla raisi, hokim yordamchisi va mahalla bankiri vazifalarini aniq chegaralab beruvchi yagona nizomni qabul qilish, barcha tijorat banklari mahalla banklari uchun yagona KPI metodikasini (yaratilgan ish o'rinlari, moliyalashtirilgan loyihalarning bir yildan keyingi "yashovchanlik" darajasi, aholi daromadining o'sishi) tasdiqlash hamda tashkil etilayotgan Mahallani rivojlantirish milliy instituti negizida bankirlar va "yettilik" a'zolarini loyiha tayyorlash ko'nikmalariga o'qitishni yo'lga qo'yish lozim.

Moliyaviy bosqichda kredit riskini davlat kafolat fondi (masalan, kredit summasining 50 foizigacha kafillik), bank (tijorat asosidagi risk-baholash) va mahalliy budjet (foiz stavkasini qisman subsidiyalash) o'rtasida taqsimlash modelini hamda muvaffaqiyatli qaytargan qarz oluvchiga bosqichma-bosqich kattaroq summani ochib beruvchi *graduated lending* tamoyilini joriy etish tavsiya etiladi. Bunda subsidiya kredit ajratilgan paytda emas, loyiha natijasi (ish o'rni yaratilgani, daromad oshgani) tasdiqlanganidan so'ng to'liq berilishi, ya'ni natijaga asoslangan subsidiyalash tamoyili qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Axborot-texnologik bosqichda oilakredit.uz tajribasini barcha mahalla kreditlash dasturlariga kengaytirib, tadbirkorlik sub'yektlarining yagona reyestri, kredit murojaatlarini elektron ko'rib chiqish, mahalla bankiri KPIsini real vaqtda kuzatish va loyihalar monitoringi modullarini o'z ichiga olgan yagona raqamli platformani shakllantirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, mahallalardagi tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlat-bank hamkorligi uch tomonlama (davlat-mahalla-bank) institutsional munosabatlar tizimi sifatida shakllandi va 2026-yilda ushbu tizimga rekord darajadagi resurslar (mahalla banklari va hokim yordamchilari ixtiyoriga 7,5 trln so'm, kichik va o'rta biznesga 140 trln so'm) yo'naltirilmoqda.

Ikkinchidan, "mahalla bankiri" instituti mazkur hamkorlikning operatsion darajasini ifodalovchi asosiy mexanizm bo'lib, uning samaradorligi 2026-yil 16-iyuldagi videoselektor qarorlari (yuklamani uch mahallagacha cheklash, 400 nafar yangi bankirni tanlash, KPI joriy etish, bankirlarga 2 trln so'mlik imtiyozli resursni mustaqil yo'naltirish huquqini berish) hamda o'sha yig'ilishda qayta tasdiqlangan, PQ-49-son qaror bilan 2026-yil 1-martdan joriy etilgan "og'ir" hududlar uchun 12 foizli stavka orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Uchinchidan, tizimni yanada rivojlantirish imkoniyatlari moliyaviy resurslar bilan bir qatorda boshqaruv sifatini oshirish, vakolatlar taqsimotini takomillashtirish, quyi bo'g'inning loyiha tayyorlash salohiyatini mustahkamlash va axborot integratsiyasini kengaytirish bilan bog'liqdir. "Tashabbusli budjet"da 2 136 ta mahalla uchun loyihalar bilan faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati buning yaqqol dalilidir.

Takliflarni amalga oshirishning tashkiliy-vaqt jihatlarini quyidagicha ko'rinadi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi va mahalla bankiri vakolatlarini chegaralovchi yagona nizom hamda barcha tijorat banklari uchun yagona



KPI metodikasini Kambag'alikni qo'llab-quvvatlash va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank hamkorligida 2026-yilning IV choragiga qadar tasdiqlash maqsadga muvofiq. Bunda tuman va shahar hokimlari zimmasiga yuklangan, yil oxirigacha har bir mahalla bankiri uchun aniq vazifalarni belgilash topshirig'i tabiiy vaqt chegarasi vazifasini o'taydi [3]. Kredit riskini davlat kafolat fondi, bank va mahalliy budjet o'rtasida taqsimlash modelini Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish davlat fondi ishtirokida 2027-yilning birinchi yarmida ikki-uch viloyatda sinov (pilot) tartibida joriy etish, natijaga asoslangan subsidiyalash tamoyilini esa pilot natijalari bo'yicha 2028-yildan respublika miqyosiga yoyish mumkin. Yagona raqamli platformani shakllantirish Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligi va Markaziy bankning qo'shma loyihasi sifatida 2027-yil oxiriga qadar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, mahalla bankirlari va "yettilik" a'zolarini loyiha tayyorlash ko'nikmalariga o'qitish esa tashkil etilayotgan Mahallani rivojlantirish milliy instituti zimmasida doimiy asosda bo'lishi lozim.

Taklif etilgan uch bosqichli konseptual boshqaruv modeli, kredit riskini davlat-bank-mahalliy budjet o'rtasida taqsimlash mexanizmi va natijaga asoslangan subsidiyalash tamoyili davlat-bank hamkorligi samaradorligini oshirish, mahalla darajasidagi moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish va davlat budjeti resurslarining maqsadli hamda samarali sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, mahalliy ijro hokimiyati organlari, tashkil etilayotgan Mahallani rivojlantirish milliy instituti hamda tijorat banklari o'z amaliy faoliyatida foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Toshkent, 2025-yil 26-dekabr // president.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF–22-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787>
3. Mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda "mahalla yettiligi" faoliyatini yangicha tashkil qilish bo'yicha videoselektor yig'ilishi materiallari. Toshkent, 2026-yil 16-iyul // president.uz.
4. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 152 p.
5. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. 1981. Vol. 71, No. 3. — P. 393–410.
6. Yunus M. Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. New York: PublicAffairs, 2003. 288 p.
7. World Bank. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, D.C.: World Bank Group, 2022.
8. Abdullayev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. 1-qism ("100 savol va 100 javob" turkumi). — Toshkent: "Mehnat", 2000. — 352 b. ISBN 5-8244-1367-3; Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: darslik. — Toshkent: "Noshir", 2011.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son hamda 2026-yil 5-fevraldagi PQ-49-son qarorlari (oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari) // lex.uz.
10. Mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi materiallari. Toshkent, 2025-yil 14-oktyabr // president.uz/oz/lists/view/8567.
11. "Mikrokreditbank" ATB matbuot anjumani ma'lumotlari. Toshkent, 2025-yil 29-dekabr // xabar.uz; mkbank.uz.
12. "Mahalla bankirlariga birlashtiriladigan mahallalar soni uchtagacha qisqartiriladi" // spot.uz, 2026-yil 16-iyul; "Mahalla yettiligida resurs va vakolat bor, lekin mas'uliyat yetishmayapti" // gazeta.uz, 2026-yil 16-iyul.
13. "O'zbekistonda soliqlar va jarimalarning bir qismi mahallalarning o'zida qoladi" // gazeta.uz, 2026-yil 16-iyul (Prezidentning 2026-yil iyun oyida imzolangan farmoniga ko'ra yer va mulk solig'i tushumlarining mahallada qoladigan ulushi 10 foizdan 15 foizga oshirilgani haqida).
14. "1-martdan «og'ir» hududlarda oilaviy biznes kreditlari stavkasi 12 foizgacha tushiriladi" // kapital.uz, 2026-yil 11-fevral (Prezidentning 2026-yil 5-fevraldagi PQ-49-son qarori sharhi: 37 ta "og'ir" hudud va 2026-yil 1-martdan amal qiluvchi 12 foizli stavka).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>